

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–oktyabr oilariga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1634 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,6 f.p kamydi.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1438 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-oktyabryida Qoraqalpog'iston Respublikasida 2274 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 690 ga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,2 % ga kamaygan ning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,4 %), To'rtko'l (9,7 %), Beruniy (8,3 %) va Amudaryo (7,3 %) hududlarida kuzatilmoxda.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyatlarning boshiga nisbatan 1634 ta korxona va tashkilotlar soni 1634 ta (11,9%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15376 ni tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,2 % ga kamaygan ning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,4 %), To'rtko'l (9,7 %), Beruniy (8,3 %) va Amudaryo (7,3 %) hududlarida kuzatilmoxda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|-------------------------------------|-------------------|--------------------|-------------------------|--------------------|
| | birlik | jamiga nis-batan % | birlik | jamiga nis-batan % |
| Qoraqalpogiston Respublikasi | 15826 | 100,0 | 15376 | 100,0 |
| Nukus sh. | 5096 | 32,2 | 4982 | 32,4 |
| <i>tumonlar:</i> | | | | |
| Amudaryo | 1153 | 7,3 | 1127 | 7,3 |
| Beruniy | 1312 | 8,3 | 1283 | 8,3 |
| Qanliko'l | 404 | 2,6 | 398 | 2,6 |
| Qorao'zak | 456 | 2,9 | 453 | 2,9 |
| Kegeyli | 470 | 3,0 | 469 | 3,1 |
| Qo'ng'irot | 884 | 5,6 | 839 | 5,5 |
| Mo'ynoq | 254 | 1,6 | 250 | 1,6 |
| Nukus | 665 | 4,2 | 647 | 4,2 |
| Taxiatosh | 453 | 2,9 | 434 | 2,8 |
| Taxako'pir | 303 | 1,9 | 297 | 1,9 |
| To'rtko'l | 1590 | 10,0 | 1491 | 9,7 |
| Xo'jayli | 802 | 5,1 | 754 | 4,9 |
| Chimboy | 602 | 3,8 | 584 | 3,8 |
| Shumanay | 382 | 2,4 | 374 | 2,4 |
| Ellikkala | 1000 | 6,3 | 994 | 6,5 |


Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,2 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,6 f.p. kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,4 % savdoda, 12,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 11,1 % sanoatda, 10,9 % qurulishda, 5,8% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,9% tashish va saqlash, axborot va aloqada 1,9 % hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,9 % dan, 30,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yhatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-oktyabrda 2274 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 43,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (727 ta), To'rtko'l (183 ta), Amudaryo (165 ta) va Beruniy tumanida (144 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mo'ynoq (60 ta), Kegeyli (60 ta) hamda Taxtako'pir (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (403 ta), savdoda (376 ta), qurilishda (354 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (314 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarida (45 ta) hamda axborot va aloqada (19 ta) tashkil etilganligi kuzatilmogda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-oktyabr oilariga. | 2018 yil yanvar-oktyabr oilariga. |
|--|---|---|
| Jami: | 1584 | 2274 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 355 | 314 |
| Sanoat | 339 | 403 |
| Qurilish | 173 | 354 |
| Savdo | 262 | 376 |
| Tashish va saqlash | 52 | 72 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 119 | 123 |
| Axborot va aloqa | 33 | 19 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 41 | 45 |
| Boshqa turlari | 210 | 568 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 noyabr holatiga 11854 tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8059 ta, xususiy korxonalar – 2843 ta, oilaviy korxonalar – 627 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 29 ni va boshqalar 296 ni tashkil etadi.





Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 112 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 45,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 62 tasi qo'shma korxonalar, 50 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar 23 ta (20,5 %), Mo'ynoq tumanida 13 ta (11,6 %), Kegeyli tumanida 10 ta (8,9%), va Nukus va Taxiatsosh tumanlarida 9 tadan (8,0%), Qo'ng'iroq tumanida 7 ta (6,2%), hissalariga tog'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Shumanay 2 ta (1,8 %) va To'rtko'l tumanida 1 ta (0,9 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyadr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 55 ta (49,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 32 ta (28,6 %), savdoda 15 ta (13,4 %), eng kamlari esa qurilishda 3 ta (2,7 %), yashash va ovqatlanish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 tadan (1,8 %), tashish va saqlashda 1 ta (0,9 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq va o'rmon xo'jaligi, sanoat hamda savdo faoliyat turlariga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar faoliyat turilariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-oktyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 29 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ko'paygan yoki 2,1 baravarga oshgan.


Bunda, Qozogiston Respublikasi – 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi kapitali ishtirokida – 7 ta, Pokiston Islom Respublikasida - 4 ta, Hindiston Respublikasida-2 ta, Rossiya Federatsiyasi - 1 ta va boshqa davlatlardan 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (1 oktyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14 ta, sanoatda 10 ta, savdoda 2 ta, qurilishda, yashash va ovqatlanishda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlarida 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11782 ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 12,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4136 (35,1 %) Nukus shahriga, 1245 (10,6 %) To'rtko'l, 1010 (8,6 %) Beruniy hamda 824 (7,0 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'gri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11782 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3112 (26,4 %) – savdoda, 1841 (15,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1665 (14,1%) - qurilishda, 1681 (14,3%) - sanoatda, 893 (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 744 (6,3 %) - tashish va saqlashda, 256 (2,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 206 (1,7 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1384 (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, qurilishga va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr oilarida 1838 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahrida (633 ta), To'rtko'l (162 ta), Amudaryo (132 ta) va Qo'ng'rot tumanida (106 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir (30 ta), Q'anliko'l (40 ta), Muynak (42 ta) va Kegeyli (45 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (403 ta), savdoda (376 ta), qurilishda (354 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (312 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (19 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (44 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 646 tani tashkil etib, ulardan 627 tasi yoki 97,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **28,0 %** ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

■ Ro'yhatdan o'tgan ■ 'Faoliyat ko'rsatayotgan ■ 'Yangi tashkil etilganlari



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 29,2 % yoki 183 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,4 % yoki 172 tasi sanoat, 21,2 % yoki 133 tasi savdo, 8,3 % yoki 52 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,4 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 2,2 % yoki 14 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatishda, 0,6 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 9,4 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Qoraqalpogʼiston Respublikasi Statistika
boshqarmasi**

Statistik registrarlarni yuritish boʼlimi

Nashr uchun masʼul:

Z.Qalmuratova
(0371) 230-82-23



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) maʼlumotlari asosida
tayyorlangan**